

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINING BILIMLARNI O'ZLASHTIRISH SIFATINI OSHIRISHDA MUAMMOLI TA'LIMNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15484141>

I.R. O'rinboyeva

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining Pedagogika va psixologiya
mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirishda muammoli ta'limning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Maqolada, muammoli ta'limning asosiy g'oyalari, muammoli ta'limning asosiy yo'nalishlari, muammoli vaziyatlarni yaratish bo'yicha keng ma'lumotlar berilgan.

Kalt so'zlar

muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, bilim, ko'nikma, malaka, mustaqil faoliyat, tafakkur.

Kirish. Muammoli ta'lim — o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni ushbu muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan mustaqil faoliyatni tashkil etish jarayonidir. Bu, bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy tarzda o'zlashtirish va rivojlantirishga olib keladi. Muammoli ta'lim o'quvchilarga bilimlarni amaliyotda samarali egallashga yordam berib, ularning kelajakda ta'lim muammolarini hal qilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni kengaytirish, shuningdek, ta'lim jarayonining maqsadlarini tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Asosiy qism. N.G.Dayri aytganidek, darsda o'rganiladigan mazmunning murakkab qismini o'zlashtirishda o'qituvchining faoliyati qanday bo'lsa, o'quvchi faoliyatini ham shu darajaga etkazish, o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, bilimlar mustahkamligini oshirish, mustaqil faoliyat yo'llarini o'zlashtirish, izlanishga yo'naltirish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammoli ta'limning asosiy maqsadidir.

Muammoli ta'limning asosiy g'oyalari amerikalik psixolog va o'qituvchi J.Dyui (1859-1952) tomonidan ishlab chiqilgan. 1894 yilda u Chikagoda o'qitishning an'anaviy rejasiga asoslanmagan, balki o'yin va mehnat orqali tajriba maktabini tashkil etgan. O'qish, yozish va hisoblash darslari bolaning fiziologik rivojlanishiga muvofiq, uning tabiiy ehtiyojlariga qarab tashkil etilgan.

J.Dyui fikriga ko'ra, bola o'z bilimini insoniyat tarixiga tayanib rivojlantiradi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni boshqarilmaydigan bo'lib, bola o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida materialni o'zlashtiradi. Uning ta'kidlashicha, o'qitish samaradorligi o'quv materialini muammoga aylantirish va bola faolligi bilan bog'liq bo'lishi zarur.

Dyui muammoli ta'limning asosiy yo'nalishlarini ijtimoiy, konstruktiv, badiiy ifodaviy va ilmiy-tadqiqot sifatida belgilab, ularni amalga oshirish uchun so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar, o'yinlar va mehnat kabi vositalardan foydalangan.

O'tgan asrning 60-yillarida esa muammoli ta'lim L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, I.Ya.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.L.Rubinshteynning "Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi" degan g'oyasi muammoli ta'limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

O'zbekistonda muammoli ta'limni qo'llashda asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanilgan. Bu usul orqali o'quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatlari va go'zal nutqni shakllantirishga erishilgan. Suqrotona savol-javob usuli hozirgi kunga qadar eng samarali ta'lim metodlaridan biri sifatida qo'llanilmoqda. Ushbu usulda o'quvchilar chuqur mantiqiy fikrlash, ziyraklik, aniq va to'g'ri so'zlash, nutqning mantiqiyliigi va ravonligini rivojlantirishga o'rgatiladi. Misol uchun, suqrotona suhbatlar o'qituvchining o'quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga jalb etishi, uning fikrlaridagi xatoliklarni aniqlab, ziyraklik bilan tuzatish yo'lini ko'rsatishdan iboratdir.

Bunday suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin: 1. Savol-javoblar orqali o'quvchining bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash. 2. O'rganilayotgan mavzuning mazmunini o'quvchi qiziqishlariga muvofiqlashtirish. Bu asosan o'quvchining qiziqish va qobiliyatlarigi mos bo'lgan misollar tanlash orqali amalga oshiriladi. 3. O'quvchini faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag'batlantirish usullaridan foydalaniladi. 4. O'qituvchi o'zini bilmaydigan odamdek tutib savollar berib boradi. 5. O'quvchini to'g'ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so'zlashga jalb qilish. 6. O'quvchining hato fikrlarini aniqlab borish. 7. O'quvchining hato fikrlariga nisbatan to'g'ri fikrni o'qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o'quvchi uchun muammoli vaziyat yaratiladi va o'quvchini o'z hatolarini o'zi tuzatishiga yo'naltiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz bo'lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o'qituvchining keng bilimiga va ijodiy fikrlash

qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi kabilardan iborat.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi shaxsdan faoliyat, mustaqil qaror qabul qilish va hayotdagi o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini talab qiladi. Bunda har bir insonda ma'lum sifatlar bo'lishi zarur. Xususan, har bir o'quvchi zarur bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, turli muammolarni hal qilishda ularni mahorat bilan qo'llash, axborotlar bilan samarali ishlash (masalani tadqiq qilish uchun kerakli faktlarni yig'ish, tahlil qilish, muammolarni hal qilish uchun gipotezalarni ishlab chiqish, qonuniyatlarni va yangi muammolarni aniqlash va yechish); olingan bilimlarning qayerda va qanday qo'llanishini bilish; mustaqil tanqidiy fikrlash, dunyoda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni hal etishning optimal yo'llarini topish; ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar yaratish qobiliyatiga ega bo'lish; shuningdek, o'zining ma'naviy, intellektual va madaniy salohiyatini muntazam rivojlantirishga qodir bo'lishi kerak.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan sifatlarni shakllantirishda nafaqat ta'lim mazmuni, balki qo'llanilayotgan o'qitish texnologiyalari ham muhim ahamiyatga ega. Ulardan biri – muammoli o'qitish texnologiyasidir. Chunki muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar o'z intellektual, jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini o'quv va amaliy muammolarni hal qilishda doimiy ravishda sinovdan o'tkazadilar. Bu jarayonda shakllangan ko'nikma va malakalar zarur sifatlarni rivojlantirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. – М.: Педагогика, 1987. – 156 с.
2. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. – М.: Педагогика, 1981. – 186 с.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: В 2т. М.: Педагогика, 1989.- 322 с.
4. Дьюи Д. Психология и педагогика мышления. Перевод с английского. – М.: Совершенство, 1997. – 208 с.